



AHOLI ICHKI MIGRATSIYASINING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRINI STATISTIK O'RGANISH

dots. **Mirolimov Mirislom**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-2714-2618

mirislom.mirolimov3138@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya jarayonlari hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning mavjudligi ichki migratsiya masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tishi, odatda, mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Ayniqsa, qishloq joylardan shaharlarga, iqtisodiy faol hududlardan markaziy shaharlarga bo'layotgan migratsion oqim mehnat bozori tarkibiga va bandlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: ekonomika, modernizatsiya, urbanizatsiya, hududiy, iqtisodiy statistika, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nofaol aholi, bandlik, ichki migratsiya, migratsion oqim, hududlararo ko'chib yurish.

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ВНУТРЕННЕЙ МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ НА РЫНОК ТРУДА

доц. **Мирослим Мирислом**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В последние годы процессы экономической модернизации, урбанизации, а также наличие межрегиональных социально-экономических различий в Республике Узбекистан ещё более актуализировали проблему внутренней миграции. Перемещение населения из одного региона в другой, как правило, приводит к существенным изменениям в территориальном распределении трудовых ресурсов. В частности, миграционный поток из сельской местности в города, из экономически активных регионов в центральные города напрямую влияет на структуру рынка труда и показатели занятости.

Ключевые слова: экономика, модернизация, урбанизация, территориальный, экономическая статистика, трудовые ресурсы, экономически активное население, экономически неактивное население, занятость, внутренняя миграция, миграционный поток, межрегиональная миграция.

STATISTICAL STUDY OF THE IMPACT OF INTERNAL MIGRATION OF THE POPULATION ON THE LABOR MARKET

assoc. prof. **Mirolimov Mirislom**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *In recent years, the processes of economic modernization, urbanization, and the existence of interregional socio-economic disparities in the Republic of Uzbekistan have made the issue of internal migration even more urgent. The migration of the population from one region to another usually leads to significant changes in the territorial distribution of labor resources. In particular, the migration flow from rural areas to cities, from economically active regions to central cities, directly affects the composition of the labor market and employment indicators.*

Keywords: *economy, modernization, urbanization, territorial, economic statistics, labor resources, economically active population, economically inactive population, employment, internal migration, migration flow, interregional migration.*

Kirish.

Ichki migratsiya nafaqat aholining yashash sharoitlarini yaxshilash omili, balki mehnat bozorining talab va taklif nisbatini tartibga soluvchi muhim jarayon sifatida ham e'tirof etiladi. Biroq migratsion oqimlarning haddan tashqari notekisligi ayrim hududlarda ortiqcha ishchi kuchi to'planishiga, boshqa hududlarda esa ishchi kuchi tanqisligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ichki migratsiyaning mehnat bozoriga ta'sirini chuqur statistik tahlil qilish orqali aholining hududiy harakati bilan bandlik darajasi, ishsizlik ko'rsatkichlari hamda ishchi kuchining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlatning hududiy mehnat siyosatini takomillashtirish, aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish hamda iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy islohotlar sharoitida aholi migratsiyasi jarayonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, ichki migratsiya nafaqat aholining yashash joyini o'zgartirishi, balki mehnat bozorining shakllanishi, hududlar kesimida bandlik darajasi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ichki migratsiyaning intensivligi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilmaning rivojlanishi hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-yanvardagi PF-5308-sonli "O'zbekiston Respublikasi bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni aholining ish bilan bandligini oshirish va hududlarda yangi mehnat resurslarini jalb etishga xizmat qilmoqda. Mazkur jamg'arma resurslari hisobidan iqtisodiy faolligi past bo'lgan hududlarda bandlikni ta'minlash, aholining ichki migratsiya sababli yuzaga keladigan ishsizlik muammolarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ichki migratsiya va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan boshqa hujjatlarda ham alohida o'rin egallagan. Jumladan, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5938-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisining bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida ichki mehnat migratsiyasi oqimlarini tartibga solish, migratsiya oqibatida hududlarda ortib borayotgan ishchi kuchi taqsimotini muvozanatlashtirish hamda aholining sifatli ish o'rinlariga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish choralari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ichki migratsiya masalalari bevosita tilga olinib, hududlarda zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, yoshlarni yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash migratsiya oqimlarini muvozanatlashtirishning eng muhim yo'nalishi ekani ta'kidlab o'tildi.

Shu bois ichki migratsiyaning mehnat bozoriga ta'sirini statistik o'rganish hozirgi sharoitda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlar asosida ichki migratsiya oqimlarining mehnat bozori bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash, shuningdek, iqtisodiy modellashtirish vositalari yordamida uning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada ichki migratsiyaning mohiyati va mehnat bozoriga ta'siri nazariy jihatdan yoritilib, statistik ko'rsatkichlar asosida amaliy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki migratsiya jarayonlarining mehnat bozoridagi bandlik, ishsizlik darajasi, hududiy farqlar va demografik omillar bilan o'zaro bog'liqligi iqtisodiy-statistik usullar orqali o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ichki migratsiya masalasi jahon miqyosida ko'plab iqtisodchi va demograf olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Klassik nazariy yondashuvlardan biri bu Ravensteinning "Migratsiya qonunlari" bo'lib, unda migratsiya jarayonlarining asosiy yo'nalishlari, hududiy va iqtisodiy omillarga bog'liqligi ilmiy asosda izohlangan. Keyinchalik Harris va Todaro (1970) ichki migratsiya va urbanizatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni, qishloqdan shahar hududlariga migratsiyaning mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi bilan qanday chambarchas aloqada ekanligini "Harris-Todaro modeli" orqali tahlil qilgan.

Shuningdek, Kuznets va Todaro kabi olimlar rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsiya oqimlarini sanoatlashuv, ishchi kuchi taqsimoti va shahar mehnat bozori imkoniyatlari bilan bog'lab o'rganishgan. Hozirgi zamonaviy yondashuvlarda esa migratsiya jarayonlari inson kapitali, mintaqaviy iqtisodiy tafovutlar va ijtimoiy infratuzilma rivojlanish darajasi bilan izohlanmoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida ichki migratsiya masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ichki migratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari yuzasidan bir qator mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Vahobov, Ibragimov va Abdullaevlarning ishlarida migratsiya jarayonlari iqtisodiy o'sish, hududiy bandlik va mehnat bozoridagi talab-taklif nisbatlariga ta'sir nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Tohirov ichki migratsiya oqimlarining demografik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini, hududiy mehnat resurslari taqsimotini tartibga solishdagi roli haqida ilmiy xulosalar bergan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining hisobotlari va rasmiy statistik to'plamlarida ichki migratsiya oqimlari, aholi bandligi va mehnat bozoridagi tendensiyalar bo'yicha muntazam ma'lumotlar keltirilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan farmon va qarorlarida (xususan, PF-4947, PF-5938, PQ-4702 va boshqalar) ichki migratsiyani tartibga solish, yangi ish o'rinlari yaratish, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiq jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, statistik, iqtisodiy, moliyaviy tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Shu bilan birga aholining turmush darajasini obvektiv statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil qilish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini o'rganish, uy xo'jaliklarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi va xarajatlari tasnifini tahlil etish, ularni hududlararo ko'chib yurishlarini

va bu jarayonlarning mehnat bozoriga ta'sirini statistik o'rganish, va to'plangan ma'lumotlar asosida ekonometrik modellar ishlab chiqish orqali amaliy taklif tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38 236,7 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 879,6 ming nafarni, vafot etganlar 177,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 702,5 ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 1 159 kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 10 117 kishini, qayd etilgan nikohlar 267,1 mingtani, nikohdan ajralishlar 46,9 mingtani tashkil etgan.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

Hudud	Ko'chib kelganlar jami	Ichki	Tashqi	Ko'chib ketganlar jami	Ichki	Tashqi
O'zbekiston Respublikasi	252 792	251 633	1 159	261 750	251 633	10 117
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 200	13 099	101	18 622	15 090	3 532
Andijon	7 897	7 897	0	9 782	9 724	58
Buxoro	9 916	9 905	11	14 166	14 032	134
Jizzax	8 172	8 160	12	9 933	9 833	100
Qashqadaryo	11 973	11 971	2	18 361	18 347	14
Navoiy	14 284	14 272	12	16 437	14 527	1 910
Namangan	2 910	2 909	1	5 126	5 096	30
Samarqand	13 708	13 706	2	17 975	17 866	109
Surxondaryo	10 832	10 832	0	14 383	14 358	25
Sirdaryo	6 970	6 946	24	7 934	7 822	112
Toshkent viloyati	31 176	30 901	275	26 295	23 813	2 482
Farg'ona	15 336	15 322	14	16 569	16 489	80
Xorazm	16 132	16 125	7	15 885	15 789	96
Toshkent sh.	90 286	89 588	698	70 282	68 847	1 435

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadval O'zbekiston hududlari bo'yicha aholi migratsiyasi (ko'chib kelish va ko'chib ketish) holatini 2025- yil uchun ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida jami 252 792 kishi ko'chib kelgan, shu jumladan 251 633 kishi ichki migratsiya, 1 159 kishi tashqi migratsiya hisobiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, mamlakat bo'yicha 261 750 kishi ko'chib ketgan, ulardan 251 633 kishi ichki, 10 117 kishi tashqi migratsiya orqali boshqa hudud yoki davlatlarga ko'chib ketgan. Bu holat umumiy hisobda ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlardan ko'proq ekanini, ya'ni migratsiya saldosini manfiy ekanini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent shahri eng yuqori migratsiya oqimiga ega hudud hisoblanadi. Bu yerga 90 286 kishi ko'chib kelgan, shundan 89 588 nafari ichki, 698 nafari tashqi migratsiya hisoblanadi. Shu bilan birga, 70 282 kishi Toshkent shahridan ko'chib ketgan. Demak, Toshkent shahri migratsiya oqimi bo'yicha ijobiy saldo ko'rsatmoqda, ya'ni ko'chib kelganlar soni ko'chib ketganlardan ancha ko'p. Bu holat poytaxtda iqtisodiy imkoniyatlar, ish o'rinlari va infratuzilma rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Viloyatlar ichida Toshkent viloyati ham migratsiya bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega. Bu hududga 31 176 kishi ko'chib kelgan, ammo 26 295 kishi ko'chib ketgan. Natijada hududda


migratsiya balansi ijobiy hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi migratsiya ulushi ham nisbatan yuqori bo'lib, 2 482 kishi tashqi migratsiya orqali ko'chib ketgan.

Aksariyat viloyatlarda esa migratsiya saldosini manfiy ko'rishda. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 11 973 kishi ko'chib kelgan, ammo 18 361 kishi ko'chib ketgan. Xuddi shuningdek, Samarqand viloyatida 13 708 kishi ko'chib kelgan, 17 975 kishi ko'chib ketgan. Surxondaryo viloyatida ham shunga o'xshash holat kuzatiladi: 10 832 kishi kelgan, 14 383 kishi ketgan. Bu hududlarda aholi ko'proq boshqa viloyatlarga yoki tashqi davlatlarga ko'chib ketayotganini ko'rsatadi.

Ba'zi viloyatlarda migratsiya ko'rsatkichlari nisbatan o'rtacha darajada. Masalan, Farg'ona viloyatida 15 336 kishi ko'chib kelgan, 16 569 kishi ko'chib ketgan. Xorazm viloyatida esa 16 132 kishi ko'chib kelgan, 15 885 kishi ko'chib ketgan, ya'ni bu hududda migratsiya saldosini deyarli muvozanatga yaqin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ko'chib ketish darajasi yuqori: 13 200 kishi ko'chib kelgan, 18 622 kishi ko'chib ketgan. Bu hududda ayniqsa tashqi migratsiya ulushi sezilarli bo'lib, 3 532 kishi tashqi migratsiya orqali ko'chib ketgan.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda migratsiya jarayonlari asosan ichki migratsiya hisobiga shakllanmoqda, ya'ni aholining katta qismi viloyatlar o'rtasida ko'chib yurmoqda. Tashqi migratsiya ulushi nisbatan kam bo'lsa-da, ayrim hududlarda (masalan, Navoiy, Toshkent viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi) uning salmog'i sezilarli. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va infratuzilmasi kuchli hududlar, xususan Toshkent shahri va Toshkent viloyati, aholini o'ziga ko'proq jalb qilayotgan markazlar sifatida namoyon bo'lmoqda.



1-rasm. Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Berilgan grafikda 2021–2025-yillar davomida xalqaro migratsiya, ya'ni xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar sonining o'zgarishi ko'rsatilgan. Ma'lumotlar tahlili migratsiya jarayonlarining dinamikasini va yillar bo'yicha o'zgarish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi navbatda, xorijga ko'chib ketganlar soni barcha yillarda xorijdan ko'chib kelganlar sonidan ancha yuqori ekanini ko'rish mumkin. Bu esa migratsiya balansining ushbu davrda manfiy bo'lganini, ya'ni mamlakatdan chiqib ketayotganlar soni kelayotganlardan ko'proq ekanini anglatadi.

2021-yilda xorijga ko'chib ketganlar soni 20 140 kishini tashkil etib, tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Shu yili xorijdan ko'chib kelganlar soni esa 1 875 kishi bo'lgan. Demak, bu davrda tashqi migratsiya oqimi asosan mamlakatdan chiqib ketish yo'nalishida bo'lgan.

2022-yilda xorijga ko'chib ketganlar soni keskin kamayib, 8 790 kishiga tushgan. Bu 2021-yilga nisbatan sezilarli pasayishdir. Shu bilan birga, xorijdan ko'chib kelganlar soni 2 291 kishiga yetib, biroz oshgan. Bu davrda tashqi migratsiya oqimida nisbiy barqarorlashuv kuzatilgan.


2023-yilda esa yana o'zgarish kuzatiladi. Xorijga ko'chib ketganlar soni 17 336 kishiga ko'tarilib, yana keskin o'sish qayd etilgan. Shu bilan birga, xorijdan ko'chib kelganlar soni ham 2 955 kishiga yetib, butun davr ichidagi eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu yil migratsiya jarayonlari faollashganini ko'rsatadi.

2024-yilda har ikkala ko'rsatkichda pasayish kuzatiladi. Xorijga ko'chib ketganlar soni 10 842 kishiga, xorijdan ko'chib kelganlar esa 2 229 kishiga kamaygan. Bu holat migratsiya oqimlarining nisbatan sekinlashganini bildiradi.

2025-yilda esa pasayish davom etadi. Xorijdan ko'chib kelganlar soni 1 159 kishiga tushib, tahlil qilinayotgan davr ichidagi eng past ko'rsatkichni tashkil etadi. Xorijga ko'chib ketganlar soni ham 10 117 kishi bo'lib, 2023-yildagi yuqori ko'rsatkichga nisbatan sezilarli darajada kam.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida xalqaro migratsiya jarayonlari notekis va o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lgan. Xorijga ko'chib ketish ko'rsatkichlari ayrim yillarda keskin oshib yoki kamayib turgan bo'lsa-da, xorijdan ko'chib kelish ko'rsatkichlari nisbatan past darajada qolgan. Bu esa mamlakatda tashqi migratsiya oqimi asosan chiqib ketish yo'nalishida ustun ekanini ko'rsatadi.

Aholining ichki migratsiyasi mehnat bozoridagi jarayonlarga chuqur ta'sir ko'rsatadi va buni statistik tahlil qilish orqali aniq ko'rsatish mumkin. Birinchi navbatda, migratsiyaning asosiy xususiyati shundaki, aholi ichki hududlardan boshqa hududlarga ko'chish jarayoni orqali mehnat resurslarining taqsimoti o'zgaradi. Bu esa mahalliy ishchi kuchi taklifini ko'paytirishi yoki kamaytirishi, ishsizlik darajasiga ta'sir qilishi va ayrim hududlarda ish haqi dinamikasini o'zgartirishi mumkin. Masalan, katta shaharlarga yo'nalgan migratsiya oqimlari bu yerda mehnat taklifini keskin oshirishi, ayniqsa past malakali ishchi kuchining ko'payishi sababli ish haqi o'sish sur'atlarini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, migratsiya orqali yuqori malakali kadrlar ham markazlarga ko'chib, innovatsion sohalarda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan turistik firma va tashkilotlar soni (turoperator, turagent)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Berilgan diagramma O'zbekiston Respublikasida 2020 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda faoliyat yuritayotgan turistik firma va tashkilotlar (turoperatorlar va turagentlar)

sonining o'zgarishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar milliy turizm sektorining rivojlanish darajasini va sohaning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

2020 yilda turistik firma va tashkilotlar soni 337 ta bo'lgan, biroq 2021 yilda u 288 taga tushib, 49 taga yoki taxminan 14,5 foizga kamaygan. Bu pasayish ko'p jihatdan global pandemiya sharoitida turizm faoliyatining cheklanishi va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. 2022 yilda sektorda tiklanish jarayoni boshlandi, firmalar soni 348 taga ko'payib, 2021 yilga nisbatan 20 taga yoki 6,9 foizga o'sdi. Bu davrda turizm xizmatlari sektori asta-sekin tiklanish bosqichiga o'tdi.

Eng sezilarli o'sish 2023 yilda qayd etildi — tashkilotlar soni 593 taga yetib, oldingi yilga nisbatan 245 taga yoki 70,4 foizga oshdi. Bu o'sish sektordagi faollikning keskin kuchayishi, investitsiyalar ko'payishi va ichki hamda xalqaro turizmga talabning oshishi bilan izohlanadi. 2024 yilda esa o'sish davom etib, tashkilotlar soni 743 taga ko'tarildi, ya'ni bir yil ichida 150 taga yoki 25,3 foizga o'sish kuzatildi.

2025 yil prognozi eng yuqori ko'rsatkichni – 965 ta tashkilotni bildiradi, bu esa 2024 yilga nisbatan 222 taga yoki 29,9 foizlik o'sishdir. Ushbu raqam turizm sohasining tez sur'atlarda rivojlanayotganini va yangi firmalar faoliyat boshlayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2020–2021 yillardagi pasayishdan so'ng turistik firma va tashkilotlar soni 2022 yildan boshlab izchil va yuqori sur'atlarda o'sishni boshladi. 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan uch barobar oshgan. Bu esa mamlakatdagi turizm sohasining pandemiyadan so'ng tiklanib, o'sish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, tashkilotlar sonining ko'payishi bandlikning oshishi, xizmatlar bozorining kengayishi va ichki hamda xalqaro turistlarning talabining ortishini anglatadi. Ijtimoiy jihatdan esa bu aholining sog'lomlashtirish, dam olish va madaniy almashinuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, ushbu statistik dinamikalar asosida mamlakat turizm sohasining jadal rivojlanishida muhim burilish nuqtalari mavjudligi aniqlandi va sohaning barqaror o'sish yo'nalishida ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Ichki migratsiyani harakatga keltiruvchi texnologik va transport omillari migratsiyaning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar odamlarning harakatini asosan infratuzilma va texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Innovatsiyalar, kommunikatsiya tizimlarining yaxshilanishi va transportning rivojlanishi odamlarning ko'chish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki migratsiyani harakatga keltiruvchi texnologik va transport omillari ko'p jihatdan iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ichki migratsiya asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga yo'nalgan bo'lib, bu hududlarda mehnat resurslari sonining tez o'sishi kuzatilmoqda. Ayrim viloyatlarda esa aholi ko'chib ketishi ko'proq bo'lib, ishchi kuchi tanqisligi yuzaga kelishi mumkin. Tashqi migratsiyada xorijga ketuvchilar soni xorijdan qaytganlarga nisbatan bir necha barobar yuqori ekani mehnat bozoridagi muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, 2021–2025 yillarda xorijga ketganlar soni o'rtacha 5–10 barobar ko'p bo'lgan. Bu holat milliy mehnat resurslari oqimining tashqi bozorga yo'nalishini aks ettiradi.

1. Ichki migratsiya jarayonlarini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish, kamroq aholi ko'chib kelayotgan hududlarda ish o'rinlari va infratuzilmani rivojlantirish.

2. Tashqi migratsiyaga chiquvchilar uchun mehnat bozorida munosib maoshli ish o'rinlari yaratish, xorijda ishlayotgan fuqarolarni qayta integratsiya qilish dasturlarini kengaytirish.

3. Migratsiya jarayonlarini elektron ma'lumotlar bazasi orqali doimiy monitoring qilish va statistik tahlil natijalari asosida maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish.

4. Tashqi migrantlarning salmog'ini qisqartirish maqsadida mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

Qisqacha aytganda, migratsiya jarayonlari mehnat bozoridagi dinamikaga kuchli ta'sir etmoqda va bu jarayonni to'g'ri boshqarish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurakhmanova, G. and Rakhimova, N. (2021) Labor migration and its socio-economic consequences in Uzbekistan. Journal of Economics and Business Research.

Castles, S., de Haas, H. and Miller, M.J. (2020) The age of migration: International population movements in the modern world. London: Palgrave Macmillan.

International Labour Organization (2023) World employment and social outlook: Trends 2023. Geneva: ILO.

Nazarov, Sh.R. (2022) O'zbekistonda ichki migratsiya jarayonlari va mehnat bozori: statistik tahlil. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnali.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik munosabatlari vazirligi (2019–2024) O'zbekistonda mehnat bozori sharhlari. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (n.d.) O'zbekiston Respublikasida aholi migratsiyasi va mehnat resurslari. Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi nashri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) "Aholi bandligini ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror, PQ-4742-son. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon, PF-60-son. Toshkent.

United Nations, Department of Economic and Social Affairs (2022) International migration report 2022. New York: United Nations.